



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
fizika fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 8-sinflar uchun
fizika fanidan I chorak

DARS

ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun fizika fanidan I chorak uchun taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Jismlarning zaryadlanishi	1		
2.	Elektr zaryad	1		
3.	Zaryadlarning o‘zaro ta’siri. Kulon qonuni	1		
4.	Masalalar yechish	1		
5.	Elektr maydon	1		
6.	O‘tkazgichlarda elektr zaryadlarining taqsimlanishi.	1		
7.	Masalalar yechish	1		
8.	Tabiatdagi elektr hodisalari. “Tabiatdagi xavf”	1		
9.	1-BSB	1		
10.	Elektr toki haqida tushuncha	1		
11.	Tok manbalari	1		
12.	Elektr kuchlanish va uni o‘lchash	1		
13.	Tok kuchi va uni o‘lchash.	1		
14.	Masalalar yechish.	1		
15.	2-BSB. Laboratoriya ishi-1: Elektr zanjirini yig‘ish, uning turli qismlaridagi tok kuchi va kuchlanishni o‘lchash.	1		
16.	Elektr qarshilik	1		
17.	1-CHSB	1		
18.	Rezistorlar. Reostatlar. Potensiometrlar	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jismlarning zaryadlanishi

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: elektr energiyasi hayotimizning ajralmas qismiligidini, elektr kashf qilinishi va undan foydalanish imkoniyatlari mislsiz taraqqiyotga sababchi bo'lganligi haqida tushuncha berish. Elektr energiyani ishlab chiqarish va uzatish, oddiy elektr asbob va qurilmalarning ishlash prinsipi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: turmushimiz yanada farovon bo'lishi uchun elektrotexnika, radiotexnika, elektronika, avtomatika,

axborot texnologiyasi, nanotexnologiyalar kabi sohalarda olimlar, muhandislar va boshqa soha mutaxassislari izlanishlar olib borishayotgani haqida o'quvchilarga tushuntirish. Elektr haqida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun fizika darslarida elektr hodisalari, elektr va magnit maydon, elektr toki, elektromagnit hodisalami o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O'zbekiston Respublikasida sog'lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma'naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

turli axborot manbalari, masala yoki mashq kitobidan, kutubxonalardan o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlab topa olish va ulardan samarali foydalana olish;
fizik birliklarni boshqa ulushli va karrali birliklarga, jadval ko'rinishdagi ma'lumotlarni, grafi k ko'rinishga (va aksincha) aylantira olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

mustaqil ravishda o'zini o'zi jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganishi, o'z xatti- harakatini adekvat baholashi va mustaqil qaror qabul qila olish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Elektr hodisasi haqida dastlahki ma'lumotlar


Plastmassadan yasalgan taroq yoki ruchkani sochingizga ishqalab, maydalangan qog'ozga yaqinlashtiring. Ularning qog'oz qiyqimlarini o'ziga tortganini ko'rasiz. Shisha tayoqchani qog'oz varag'iga ishqalab qo'limizga yaqinlashtirsak, chirsillagan tovush eshitiladi, qorong'ida esa mayda uchqunlar ko'rinadi. Bunday hodisalami insonlar qadim zamonlardayoq payqaganlar va ularga o'z munosabatlarini bildirishgan. Qadimgi yunon olimi **Fales Miletskiy** (mil. avv. 625—547) mo'yimga ishqalangan ba'zi jismlar yengil narsalarni o'ziga tortishini yozib qoldirgan. Buyuk bobokalonimiz **Abu Rayhon Beruniy (9731048)** ham elektr hodisalari haqida risolalar yozib qoldirgan. **Juda qadim zamonlarda Ynnonistonda o'sgan ignabargli daraxtlar qoldig'ining toshga aylangan yclimi (smola) ni yunonlar «elektron» deb ataishgan. Elektr so'zi ham shundan kelib chiqqan.** Yunonlar «elektron» deb atashgan yelimni ruslar «yantar», sharq xalqlari esa «kahrabo» deb atashgan. Kahrabo so'zi forscha so'z bo'lib, somon tortuvchi ma'nosini anglatadi. Haqiqatan ham, mo'ynaga ishqalangan kahrabo somon bo'laklarini o'ziga tortadi. Ishqalangandan keyin boshqa jismlarni o'ziga tortadigan jismlar *elektrlangan yoki elektr*

zaryadlangan jism deb ataladi. Elektrlangan jismlarga qattiq jismlar singari, boshqa holatdagi moddalar ham tortiladi. Masalan, elektrlangan tayoqcha mayda qog'oz bo'laklarini (1-a rasm), jildirab tushayotgan suvni ham o'ziga tortadi (1-b rasm). Shisha tayoqcha shoyiga ishqalanganda faqat tayoqcha emas, shoyining o'zi ham yengil buyumlarni o'ziga tortish xossasiga ega bo'lib qoladi (1-d rasm). **Demak, ikki jism bir-biriga ishqalanganda ularning har ikkalasi ham elektrlanadi.**

ABU RAYHON BERUNIY (973–1048)

Geodeziya asoschisi sifatida dunyoga tanilgan buyuk astronom, matematik, geograf, farmakolog va tarixchi-qomuschi olim. U qadimiy Xorazmning Kot shahrida tug'ilgan.

Beruniy modda tuzilishi, jismlarning zaryadlanishi, moddalarning joylashuviga Yer massa markazining ta'siri xususida Aristotel g'oyalarini ilmiy asoslagan. Oy krateri va Quyosh sistemasidagi 1986-yilda kashf qilingan kichik sayyoraga Beruniy nomi berilishi bobokalonimizga bo'lgan dunyo ahlining e'tirofidir.




Elektrlanishning ikki turi


Turli xil jismlar o'zaro ishqalanganda ularning turli xil zaryadlanishi va turli xil ta'sirlashishi kuzatiladi. Masalan, ebonit tayoqchani 1 mo'yna qog'lqopga, shisha tayoqchani esa, shoyi matoga ishqalab zaryadlaymiz. Tayoqchalarni ipga osib, ularga qog'lqopni yaqinlashtirsak, shisha tayoqcha qochadi, ebonit tayoqcha esa unga tortiladi (2-a rasm). Endi tayoqchalarga shoyi matoni yaqinlashtirsak, aksincha, shisha tayoqcha unga tortiladi, ebonit tayoqcha esa undan qochadi (2-b rasm). Shisha tayoqchaning mo'yna qog'lqopdan qochishi va ayni paytda uning shoyi matoga tortilishi jismlarning turli xil elektrlanishining natijasidir. Bir-biridan qochuvchi elektrlangan jismlarni bir xil ishorali, o'zaro tortishuvchi jismlarni esa, har xil ishorali zaryadlangan deb atash qabul qilingan. **Elektrlanishning ikki turi mavjud: shoyiga ishqalangan shisha tayoqcha musbat (+) ishorali, mo'ynaga ishqalangan ebonit tayoqcha manfiy (-) ishorali elektrlanib qoladi. Bir xil ishorali elektrlangan jismlar bir-biridan itariladi, turli ishorali elektrlangan jismlar esa, bir-biriga tortiladi.** Jismlarning elektrlanganligini kuzatish uchun elektroskopdan foydalaniladi. «Elektroskop» so'zi yunoncha «elektron» va «skopeo»1 so'zlaridan olingan. Eng soddagina elektroskop 3-rasmda tasvirlangan. Unda metall gardishga o'rnatilgan plastmassa tiqin (7) orqali metall sterjen (2) o'tkazilgan. Sterjenning yuqori uchiga sharcha (3) o'rnatilgan, pastki uchiga esa folga yaproqchalari (4) osilgan.

Gardishning ikkala tomoni oyna bilan berkitilgan. Elektroskopning sharchasiga zaryadlangan jism tekkizilsa, uning yaproqlari ochiladi, chunki uning yaproqchalari bir xil zaryadlanadi. Jismlarning elektrlanganlik darajasini aniqlash, zaryadlanish darajasini taqqoslashda elektrometrdan foydalaniladi (4-rasm), Elektrometrda metall sterjen (1) ga aylanuvchi strelka (2) o'rnatilgan. Sterjen va ko'rsatkichni tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun metall g'ilof (3) yerga ulanadi. **Elektrometr - jismlarning**

elektrlanganlik darajasini ko'rsatuvchi asbob. Elektrometr ichiga mahkamlangan aylanuvchi strelka o'qi atrofida erkin harakatlana oladi. Sharcha elektrlanganda stajen va ko'rsatkich bir xil ishorali elektrlanadi. Natijada ko'rsatkich steijendan itariladi. Ko'rsatkichning holatiga qarab, sharchaning elektrlanganlik darajasini aniqlash mumkin. **Elektr o'tkazgichlar va dielektriklar**

Ikkita bir xil elektrometr olaylik. Ulardan birining sharchasi zaryadlangan bo'lsin. Ularni yonma-yon qo'yib, elektrometrlarning sharchalarini shisha tayoqcha bilan o'zaro ulaylik. Elektrlangan elektrometrning ko'rsatishi o'zgarmaydi.





O‘zidan elektrni o‘tkazmaydigan moddalar dielektriklar deb ataladi. Dielektriklardan tayyorlangan buyumlar esa izolatorlar deyiladi. «Dielektrik» yunoncha so‘z bolib,

«o‘tkazmas» degan ma‘noni bildiradi. «Izolator» esa lotincha «izolaro» so‘zidan olingan bo‘lib, «yakkalangan» degan ma‘noni anglatadi.

Dielektriklarga barcha turdagi shishalar, plastmassalar, rezina, kauchuk, sopol, havo kabilar kiradi. Endi elektrometrlarning sharchalarini metall tayoqcha bilan o‘zaro tutashtiraylik. Birinchi elektrometr sharchasidagi elektr zaryadining bir qismi ikkinchi elektrometring sharchasiga o‘tadi.

Natijada birinchi elektrometrning ko‘rsatishi kamayadi, ikkinchi elektrometring ko‘rsatkichi harakatga kelib, unda zaryad paydo bo‘lganligini anglatadi (5-b rasm).

Demak, metallar elektrni yaxshi o‘tkazadi. **Elektrni o‘zidan o‘tkazuvchi moddalar elektr o‘tkazgichlar deb ataladi.**

Elektrlangan tayoqcha zaryadlanmagan jismga

tekkizilsa, u zaryadsizlanib qoladi. Jismlarda zaryadlarni to‘xtovsiz hosil

qilish uchun zaryadlarni ta‘minlab beruvchi qurilma zarur. Uzlüksiz ravishda


zaryadlarni hosil qilib turadigan qm-ilma ingliz olimi Jeyms Uimsxyorst

(1832-1903) tomonidan kashf qiliigan. Bu asbob elektrofor mashina deb ataladi (6-rasm).

Elektrofor mashina dastagi aylantirilganda, uning ikki diski (7) qarama-qarshi tomonga aylanadi. Aylanayotgan

disklar cho‘tkalarga ishqalanishi natijasida ularda qarama-qarshi ishorali zaryadlar hosil bo‘lib, bu

zaryadlar «Leyden bankasi» (2) deb ataluvchi ikki silindrda to‘planadi. Jismlarni elektrofor mashinaning metall sharchalariga (3) tekkizib, ularni zaryadlash mumkin bo‘ladi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash


1. Elektr o‘tkazgichlar deb qanday moddalarga aytiladi? Unga misollar keltiring.

2. Jismlar bir-biriga ishqalanganda ular qanday zaryadlanadi?

3. Elektrofor mashinada zaryadlar qanday hosil qilinadi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Elektroskop yasang. Buning uchun plastmassa qopqoqli (shisha banka) idish oling (7-6 rasm). Uning qopqog‘ini o‘rtasidan teshing va aluminiy simni o‘tkazing. Simning banka ichidagi qismiga yengil folga qog‘ozi yaproqchalarini ikkiga buklagan holda, erkin harakatlanadigan qilib joylashtiring. Folga qog‘ozdan sharcha yasab, uni rasmda ko‘rsatilgandek simning tashqaridagi uchiga mahkamlang. Plastmassadan yasalgan taroqni sochga ishqalab folga shaichaga tekkizing. Yaproqchalai ochiladi. Jarayonni izohlang.



O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Elektr zaryad

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: elektr energiyasi hayotimizning ajralmas qismiligidini, elek kashf qilinishi va undan foydalanish imkoniyatlari mislsiz taraqqiyotga sababchi bo'lganligi haqida tushuncha berish. Elektr energiyani ishlab chiqarish va uzatish, oddiy elektr asbob va qurilmalarning ishlash prinsipi bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy: turmushimiz yanada farovon bo'lishi uchun elektrotexnika, radiotexnika, elektronika, avtomatika,

axborot texnologiyasi, nanotexnologiyalar kabi sohalarda olimlar, muhandislar va boshqa soha mutaxassislari izlanishlar olib borishayotgani haqida o'quvchilarga tushuntirish. Elektr haqida ma'lumotlarga ega bo'lish uchun fizika darslarida elektr hodisalari, elektr va magnit maydon, elektr toki, elektromagnit hodisalami o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: O'zbekiston Respublikasida sog'lom, jismonan baquvvat, bilimli, ma'naviy-axloqiy yetuk, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

fizik atamalarni, qonunlarni, qoidalarni og'zaki va yozma tarzda aniq ushunarli bayon qila olish, boshqalarga tushuntirib bera olish va yoza olish,

fizik kattaliklarning xorijiy tilda aytilishi va yozilishini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor

bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarni tuza olishi, fizikani o'rganishda turli formulalar, jadval va grafi klardan foydalana olishi, inson mehnatini yengillashtiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fizika fanidagi va texnika yangiliklaridan foydalana olish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.


II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Atom tuzilishi

Yunon olimlari tabiatdagi barcha jismlar atomlardan tashkil topgan deb hisoblaganlar. «Atom» so'zini fanga yunon mutafakkiri Demokrit (mil. aw.460-370-y.) kiritgan. Bu so'z «bo'linmas» degan ma'noni bildiradi. XX asrga kelib olimlar atomning ham bo'linishi mumkinligini va u murakkab tuzilishga ega ekanligini aniqladilar. 1911-yilda ingliz fizigi Ernest Rezerford tajriba asosida atom tuzilishining modelini kashf etdi. **Atom markazida yadro joylashgan bo'lib, u musbat zaryadlangan proton va zaryadlanmagan neytronlardan tashkil topgan. Atom yadrosi atrofida orbita bo'ylab manfiy zaryadlangan elektronlar harakat qiladi.** Atomdagi elektronlar soni protonlar soniga teng bo'ladi. Masalan, vodorod (H) atomining yadrosi faqat 1 ta protondan iborat bo'lib, yadro atrofida ham faqat 1 ta elektron harakatlanadi (*8-a rasm*). Geliy (He) atomida 2 ta proton, 2 ta elektron va 2 ta neytron mavjud (*8-b rasm*). Uglerod atomi esa 6 ta proton, 6 ta elektron va 6 ta neytrondan tashkil topgan (*8-d rasm*). Kimyoviy element atomida proton va elektronlar soni teng bo'lsa, ular elektr jihatdan neytral

bo'ladi.



Elektr zaryad haqida tushuncha

Elektr, jismlarning elektrlanishi, elektr toki kabi tushunchalami juda ko'p eshitgansiz hamda elektr jihozlaridan muntazam ravishda foydalanib kelasiz.

Xo'sh, barchasining asosini tashkil etuvchi elektr zaryadining o'zi nimcP. Ebonit tayoqchani elektrlab, elektroskop sharchasiga tekkizilsa, uning yaproqchalari ochiladi (9-a rasm). Tayoqchani yana bir bor mo'ynaga ishqalab, sharchaga tekkizsak, uning yaproqchalari kattaroq burchakka ochiladi (9-b rasm). Demak, jismning elektrlanganlik darajasini o'zgartirish mumkiini. **Jismlarning elektrlanganlik darajasini tavsiflovchi fizik kattalik elektr zaryad deb ataladi va q harfi bilan belgilanadi.**

Xalqaro birliklar sistemasida elektr zaryadning birligi qilib kulon (C) qabul qilingan. Tabiatda, avvalgi mavzuda aytilganidek, musbat ishorali va manfiy ishorali zaryadlar mavjud. Shoyiga ishqalangan shisha tayoqcha musbat zaryadlanadi, shoyining o'zi esa manfiy zaryadlanib qoladi. Bunga sabab nima?

Sababi shuki, ishqalanish paytida shisha tayoqchadagi **elektronlarning** bir qismi shoyiga o'tadi (10-a rasm).

Shoyida manfiy zaryadlar nisbatan ortib ketganligi sababli, shoyi manfiy zaryadlanib qoladi. Shisha tayoqchada esa musbat zaryadlar ortiq bo'lganligi uchun tayoqcha musbat zaryadlanadi.

Mo'ynaga ebonit tayoqcha ishqalanganda, mo'yna atomlaridagi elektronlarning bir qismi ebonit tayoqchaga o'tganligi sababli tayoqcha manfiy, mo'yna esa musbat zaryadlanadi. **Qiymat jihatidan elektron zaryadiga teng bo'lgan zaryad elementar zaryad deb ataladi.** Elementar zaryad e harfi

(elementar so'zining bosh harfi) bilan belgilanadi. Bitta elektronning zaryadi $e = q_e = -1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$

ga, bitta protonning zaryadi esa $q_p = +1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ ga teng. Demak, elektron va protonning zaryadlari miqdor jihatdan o'zaro teng bo'lib, ular bir-biridan faqat ishoralari bilan farq qiladi. Tabiatdagi barcha zaryadlangan jismlarning zaryadi elementar zaryadga karrali bo'ladi. Agar bir jismdan ikkinchi jismga N ta elektron o'tgan bo'lsa, $q = N \cdot e$ birinchi jism $+(N \cdot 1,6 \cdot 10^{-19}) \text{ C}$ zaryadga, ikkinchi jism esa xuddi shunday manfiy zaryadga, ya'ni $-(N \cdot 1,6 \cdot 10^{-19}) \text{ C}$ ga ega bo'lib qoladi. Elektronning massasi $m_e = 9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ va protonning massasi $m_p = 1,67 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ ga teng.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Atom tuzilishini tushuntirib bering.
2. Vodorod, geliy va uglerod atomlari qanday tuzilishga ega?
3. Elektr zaryad deb nimaga aytiladi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Shoyi matoga shisha tayoqcha ishqalanganda (11-rasm) ulardagi zaryadli zarralar miqdori qanday o'zgaradi? Uni quyidagi jadvalda ko'rsating:

a) shoyi matodagi elektronlar soni	b) shisha tayoqchadagi protonlar soni



11-rasm.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

42 listdan iborat fizika fanidan 8-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**